

.....

O‘ZBEK ADABIYOTIDA UVAYSIY IJODI TADQIQI XUSUSIDA

Shohistaxon Jumaboyeva

Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyi stajor-tadqiqotchisi

Annotatsiya: maqolada Uvaysiy ijodining XIX asrdan hozirgi kungacha bo‘lgan o‘rganilish tarixi bosqichma-bosqich tahlil qilingan. Shoir merosining tarixiy-adabiy manbalarda qayd etilishi, XX asrda ilmiy tadqiq etilishi, 1950–1980-yillarda ijodining keng ko‘lamda o‘rganilishi hamda mustaqillik davrida yangi ilmiy yondashuvlar asosida qayta baholanishi yoritilgan.

Kalit so‘zlar: devon, tazkira, tekstologiya, manbashunoslik, mumtoz adabiyot, ayol lirikasi, tasavvuf, badiiy mahorat.

Uvaysiy o‘zbek shoiralari orasida o‘ziga xos badiiyati, mavzu va g‘oyalar qamrovi, falsafiy xulosalari bilan alohida o‘rin tutadi. Uning 15 ming misraga yaqin she‘riy asarlari va bir necha dostonlari xalqimizning qadrlil merosiga aylangan. Shoiraning merosi nafaqat o‘z zamonida, balki keyingi davrlarda ham adabiyotshunos olimlarning diqqat markazida bo‘lib kelgan. Uvaysiy haqidagi ilmiy izlanishlarning XIX asrdan hozirgi kungacha bo‘lgan bosqichma-bosqich rivojini o‘rganish, uning adabiy o‘rni va ijodining qadrlanish jarayonini tizimli tasvirlashni taqozo etadi. Mazkur maqola shoiraning ilmiy organilishi tarixini bosqichlar bo‘yicha tahlil qilishga bag‘ishlanadi.

Uvaysiy haqida XIX asrda maxsus ilmiy tadqiqotlar olib borilmagan bo‘lsa-da, uning nomi bir qator tarixiy-adabiy manbalarda uchraydi. Xorazm, Buxoro va Qo‘qon adabiy muhitiga oid tazkiralarda “Majmuat ush-shuaro”, “Tazkirayi Muqimxoniy”, “Tazkirayi Shayxoniy” kabi to‘plamlarda shoir she‘rlari, adabiy mavqei va uning iste’dodi haqida qisqa eslatmalar uchraydi. Bu manbalarda Uvaysiy o‘zining nozik didli ayol shoir sifatida tiliga olinishi uning ijodi o‘z zamonadayoq el orasida tanilganini ko‘rsatadi. XIX asr oxiriga kelib shoir devonining qo‘lyozma nusxalari turli madrasalar va xonadonlarda ko‘paytirilgani, hatto, ayrim g‘azallari xalq og‘zaki ijodi shaklida tarqalganligi qayd etiladi. Bu esa Uvaysiy merosining ommaviyligini va keyingi avlodlar

uchun ilmiy manba bo'lib xizmat qilganini ko'rsatadi [2,529].

XX asrning birinchi choragida jadid adabiyoti va matbuoti rivojlanishi tufayli o'zbek ayol shoiralarning merosiga qiziqish oshdi. Jadid ziyolilari Uvaysiy, Nodira kabi shoiralarning adabiy xizmatlarini e'tirof eta boshladi. Garchi bu davrda shoira asarlari to'liq ilmiy tahlil qilinmagan bo'lsa-da, qo'lyozmalarni yig'ish va nashrga tayyorlash ishlari yo'lga qo'yildi. Ammo 1920-30-yillarda "eski adabiy meros"ga salbiy munosabat kuchaygani sabab Uvaysiy ijodini chuqur ilmiy-tahlil qilish jarayoni sekinlashdi. Shunga qaramay, bu davr shoira merosini saqlab qolishda muhim bosqich bo'ldi.

Shoira haqida qisqacha ma'lumot va sherlaridan namunalar 1945-yili chop etilgan "O'zbek adabiyoti tarixi xristomatiyasi"ning ikkinchi tomida, 1948-yil nashr etilgan "O'zbek poeziyasi antologiyasi"da e'lon qilindi. Mazkur antologiyada yozuvchi Oybekning bosh so'zi va shoira g'azallaridan namunalar berilgan. Lekin u paytlarda Uvaysiy tarjimai holiga oid ma'lumotlar yetarli darajada aniqlanmagan edi. Ikkinchidan esa, bu ishlar shoira maxsus o'ziga bag'ishlanmaganidan ulardagi ma'lumotlar yo'l-yo'lakay beriladigan axborotlar sifatidagi materiallar edi. Shu sababli ularda ba'zi bir noaniqliklar ham mavjuddir. 1950-yillardan boshlab shoira haqida ilmiy maqolalar ham yozila boshladi.

Abdulla Olimjon, O'tkir Rashidning ilmiy maqolalari hamda To'xtasin Jalolovning 1959-yili nashr etilgan "O'zbek shoirlari" nomli kitobi Uvaysiy hayoti va ijodi haqida nisbatan kengroq ma'lumot beruvchi asarlardir. A.Qayumov va E.Ibrohimova nashrga tayyorlagan nisbatan to'liq devoni ham 1959-yili O'zbekiston Fanlar akademiyasi tomonidan chop etildi. Atoqli adabiyotshunos olim Aziz Qayumovning 1961-yil nashr etilgan "Qo'qon adabiy muhiti" nomli kitobida Uvaysiy hayoti va ijodiga alohida fasl ajratilib, shoira asarlari atroflicha tahlil etib berilgan. Adabiyotshunos E'tibor Ibrohimova esa Uvaysiy hayoti va ijodi haqida maxsus ilmiy tadqiqot yaratdi. Shoira asarlari 1963-93-yillar davomida E.Ibrohimova, M.Qodirova, I.Qosimov, A.Valihonovlar tomonidan bir necha marta nashr etilib, adabiyot ixlosmandlarining e'tiboriga topshirildi [6,261].

Uvaysiy ijodining o'rganilishi haqida gap ketganda 60-yillarni alohida ta'kidlab o'tish lozim. Bu davr Uvaysiy ijodi o'rganilishida yangiliklar topilgan eng samarali davr

bo'ldi. Andijon davlat pedagogika institutining o'zbek adabiyoti kafedrası professor X.Razzoqov rahbarligidagi o'z ilmiy-tekshirish ishlari davomida Andijon viloyati Marhamat tumanida yashaydigan avlodlari aniqlanib, ular bilan aloqa bog'landi. Imiy ekspeditsiya tuzilib, Uvasiyning chevarasi Xoljon otin-Mag'ziy ixtiyoridagi meros adabiyot ixlosmandlariga yetkazildi. Shundan keyin, shoira to'g'risidagi yangidan-yangi ma'lumotlar o'rganildi bu ma'lumotlar asosida E.Ibrohimovaning "Uvaysiy" risolasi, X.Razzoqov, Ulfat, G'.Abdullayev, N.Mamatovlar tomonidan nashrga tayyorlanib, "Devon" maydonga keldi. Shuningdek, ana shu ma'lumotlar 1967-yili chop etilgan "O'zbek adabiyoti tarixi" darsligidagi "Uvaysiy" maqolasiga asos qilib olindi [5,118].

Shoiraning merosi haqiqiy ilmiy asosida o'rganilishi, umumiy qilib aytganda, 1950-80-yillarga to'g'ri keladi. Adabiyotshunoslikning rivojlanishi, o'zbek klassik adabiyotiga ilmiy yondashuvning mustahkamlanishi bu jarayonga turtki bo'ldi. O'zbek adabiyotining bir necha zabardast olimlari uning ijodiga turli rakurslardan qarab, chuqurroq yondashdilar. Masalan, N.Mallayev o'zining "O'zbek adabiyoti tarixi" asarida Uvaysiyning XIX asr ayol lirikasining yirik namoyondasi sifatida tahlil qiladi. Uvasiy g'azallari mavzu doirasi, badiiy san'atlari, tasvir vositalari va ayol ruhiyatining nozik ifodasi Mallayev tomonidan ilk bor ilmiy asosda yoritildi [3].

A.Hayitmetov esa shoiraning tasavvufiy qarashlariga, shaxs ruhiy olamining tahliliga katta e'tibor qaratdi. Uvaysiy lirikasidagi ma'naviy-ma'rifiy g'oyalar, inson va baxt konsepsiyasi Hayitmetov izlanishlarida puxta o'rganilgan. Ushbu davrda eng muhim ishlaridan biri-Uvaysiy devonining tekstologik tahlil qilinishi bo'ldi. I.Abdullayev qo'lyozma manbalarni solishtirib, ilmiy-kritik matn yaratishga intildi. Bu ish keyingi tadqiqotlar uchun mustahkam asos vazifasini o'tadi. Bu davrda

shoiraning she'rlari antologiyalarga, darsliklarga kiritildi, uning adabiy portreti yanada to'liq shakllandi [1].

1991-yildan boshlab o'zbek adabiy merosini qayta tiklash siyosati kuchayganligi bois Uvasiy ijodiga yondashuv ham tubdan o'zgardi. Shoiraning merosi ideologik yondashuvlardan xoli holda, badiiy-estetik jihatdan baholandi. Bu davr tadqiqotlarning o'ziga xos xususiyatlari shundan iboratki, shoira devonlari qayta nashr etilib, qo'lyozmalari manbashunoslik asosida o'rganilishi kuchaydi. Mustaqillik davri

tadqiqotlari Uvasiy shaxsining nafaqat shoir, balki ma'rifatparvar, o'z muhitida faol ayol ziyoli sifatidagi qiyofasini tiklashga xizmat qildi. So'nggi yillardagi zamonaviy yondashuvlarda shoira ijodining quyidagi yo'nalishlariga urg'u berilmoqda.

Qo'lyozmalarining variantlarini taqqoslash, grammatik, fonetik, semantik darajadagi poetik vositalarni o'rganish, badiiy konsepsiyalarini tahlil qilish, ayol lirikasini o'rganish va solishtirma adabiyotshunoslik (Nodira va Dilshod Barno kabi shoirlar bilan) alohida o'rin tutadi. Bu zamonaviy yondashuvlar Uvaysiy merosini yanada keng ilmiy doirada qayta baholash imkonini bermoqda.

Uvaysiy haqida o'nlab adabiyotlar yaratilgan bo'lishiga qaramay uning devonlari to'liq tekstologik tahlildan o'tmagan. Uning qo'lyozmalari O'zbekiston va Tojikiston fondlarida mavjud. Ulardan ko'pchiligi ilmiy muomalaga kiritilmagan. Shoiraning matnlarda variantlar ko'p, ammo ularning manbashunoslik xaritasi chizilmagan. Masalan, qaysi variant eng qadimgisi, qaysi nusxani asosiy matn sifatida olish kerak, qaysi kotiblar tomonidan ko'chirilgan? Bu savollarning aksariyati hozirgacha hal qilinmagan.

Xulosa qilib aytganda, Uvaysiy ijodining o'rganilish tarixi XIX asrdagi tazkiralardagi ilk eslatmalardan boshlab bugungi zamonaviy ilmiy tadqiqotlargacha uzluksiz davom etib kelmoqda. Shoiraning merosiga dastlab qiziqish qo'lyozmalarini saqlab qolish darajasida bo'lgan bo'lsa, XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab u haqiqiy ilmiy tahlil maydoniga aylandi. Mustaqillik yillarida esa Uvaysiy shaxsi va ijodi xalqona ma'rifiy va estetik qadriyatlar asosida chuqurroq o'rganila boshladi. Bugungi kunda Uvaysiy merosi o'zbek klassik adabiyotining muhim qatlami sifatida yangicha talqin qilinmoqda. Shoiraning badiiy mahorati, lirikasidagi samimiylilik, ayol ruhiyatining nozik tasviri va tasavvufiy g'oyalarning o'ziga xos talqini uni o'zbek adabiyoti tarixida betakror shaxs sifatida namoyon etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Hayitmetov A. Jahon Otin Uvaysiy lirikasi. –Toshkent, 1982.
2. Jumaxo'ja N., Adizova I. O'zbek adabiyoti tarixi. –Toshkent: Innovatsiya-Ziyo, 2020.
3. Mallayev N. O'zbek adabiyoti tarixi. –Toshkent, 1976.
4. Qodirova M. Uvaysiy she'riyatidan. –Toshkent, 1980.

5. Uvaysiy. Devon. –Toshkent: Adabiyot va san’ati, 1983.
6. Uvaysiy. Mazmun ma’dani. –Toshkent: Akademnashr, 2010.
7. Juraeva, S. (2025). THE PHILOSOPHY OF GRATITUDE AND PATIENCE IN SAIDA ZUNUNOVA’S POETRY. *Advances in Science and Humanities*, 1(11), 191-124.
8. Jurayeva, N. (2023). Mumtoz she'riyatda Bobur g'azallarining poetik xususiyatlari. *Alfraganus*, (1 (1)), 30-34.
9. Jurayeva, N. (2023). Mumtoz she'riyatda Bobur g'azallarining poetik xususiyatlari. *Alfraganus*, (1 (1)), 30-34.
10. Isamiddinova, B. S. (2025). The Transformation Of The Chronotope In Literature Of The Digital Age: The Dialectic Of Virtual Space And Real Time. *Library of Current Research Journal of Philological Sciences*, 6(10), 40-44.
11. Botirova, S. (2021). ВОЗМОЖНОСТИ ХУДОЖЕСТВЕННОГО ЧТЕНИЯ. *Журнал иностранных языков и лингвистики*, 2(4).